



**TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

**EXPECTED DURATION OF EDUCATION**

**HRM LIFE EXPECTANCY HEALTH STATUS HUMAN C**

**STATUS HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL IND**

**VOLUME 7 / 2024**

**LABOR ECONOMIC**

**QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION**

**DURATION OF EDUCATION**

**LIFE EXPECTANCY HEALTH**

**HRM HUMAN CAPITAL**

**HUMAN CAPITAL INDEX**

**QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION**

**TASHKENT S  
OF ECONOMI  
LABOUR ECO  
HUMAN CAPI**

# **MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI**

**ilmiy elektron jurnali**

## **LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL**

**scientific electronic journal**

**2024 yil 1-son**

**Volume 7, Issue 1, 2024**



МЕХНАТ ИКТИСОДИЙОТИ  
ВА ИНСОН КАПИТАЛИ  
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИКТИСОДИЙОТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ  
№ 1-2024

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ  
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro’yxatga olingan.

**Muassis:** “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

**Tahririyat manzili:**

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko’chasi,  
49 uy

**Elektron manzil:** [ilmymaktab@gmail.com](mailto:ilmymaktab@gmail.com)

**Jurnal web-sayti:** [www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**Bog’lanish uchun telefonlar:**

+998998818698

**Tahririyat Kengashi raisi:**  
(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

**Tahririyat Kengashi a'zolari:**  
(Members of the Editorial Board)

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.  
Yusupov Axmadbek Tadiyevich, i.f.d.. prof.  
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof  
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof  
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof  
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.  
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.  
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.  
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.  
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d.. prof.  
Xudoibergaliyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.  
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)  
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.  
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.  
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.f.d., (PhD), dots.  
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

**Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**  
(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)  
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)  
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)  
Xeynz Miller (AQSh)  
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)  
Masato Xivatari (Yaponiya)  
Gerxard Feldmayer (Germaniya)  
Eko Shri Margianti (Indoneziya)  
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)  
Rohana Ngah (Malayziya)  
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)  
Teguh Dartanto (Indoneziya)  
Nur Azlinna (Saudiya Arabiston)  
Muhammed Xoliq (Pokiston)  
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

**Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief):** G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich



+99899 881-86-98



ilmiyaktab@gmail.com



Tashkent, Uzbekistan



[www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**MUNDARIJA (CONTENTS)****MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

<b>G.K.Abduraxmanova</b>	<i>Mamlakat aholisini unumli bandlik darajasini oshirish mexanizmini takomillashtirish .....</i>	7-18
<b>S.B.G'oyipnazarov</b>		
<b>S.P.Qurbanov</b>		
<b>B.E.Mamaraximov</b>	<i>Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish yoshlar bandligini ta'minlash omili sifatida .....</i>	19-25
<b>A.A.Yadgarov</b>	<i>Agrar tarmoqni su'urtalasha malakali kadrлar tayёрлаш ҳолати ва rivojlanтириш истиқболлари .....</i>	26-32
<b>S.P.Qurbanov</b>	<i>O'zini o'zi band qilishda zaif bandlikdan unumli bandlik sari transformatsion jarayonlar .....</i>	33-45
<b>N.R.Saidov</b>	<i>Yangi ish o'rinalarini tashkil etishga investisiyalar ta'sirini ekonometrik tahlili .....</i>	46-56
<b>F.O'Masharipov</b>	<i>Meҳнат бозорида xусусий сектор эҳтиёжи асосида ўрта бўғин кадrларини тайёрлаш: muammolар ва eчимлар .....</i>	57-70
<b>S.M.Kurbanbayeva</b>	<i>Kвалификационные рамки в современном образовании и рынке труда .....</i>	71-80
<b>I.X.Xuvaydullayeva</b>	<i>Миллий меҳнат бозорида инсон ресурсларидан самарали фойдаланиши имкониятлари .....</i>	81-90
<b>G.R.Kuziyeva</b>	<i>O'zbekistonda raqamlashtirish va ta'lim orqali mehnat unumdorligini oshirishning miqdoriy tahlili</i>	91-101

**INSON KAPITALI**

<b>A.B.Irmatova</b>	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi .....</i>	102-117
<b>A.M.Saidahmadov</b>		
<b>S.M.Dusanov</b>	<i>Taъlim tizimida moliajvий ресурслар самарадорлигини оширишининг rivojlanangan horижий мамлакатлар тажрибасидан фойдаланиш имкониятлари .....</i>	118-134
<b>I.I.Ergashev</b>	<i>Kичик бизнес ва xусусий тадбиркорликни rivojlanтиришда инвестициялардан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш uslubиёti .....</i>	135-145
<b>Sh.A.Xodjayeva</b>	<i>Основы формирования и функционирования маркетинговой деятельности высших образовательных учреждений .....</i>	146-159

<b>M.R.Babadjanova</b>	<i>Иқтисодий категория сифатида инсон капиталининг моҳияти ва унда таълимни ўрни</i>	160-172
<b>D.B.G'aniyeva</b>	<i>Ходимларни ўқитиш ва ривожлантиришнинг дастурларининг самарадорлигини баҳолаш муаммолари .....</i>	173-184
 <b>INSON TARAQQIYOTI</b>		
<b>D.I.Iskandarova</b>	<i>O'zbekistonda aholi daromadlari va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili .....</i>	185-194
 <b>KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH</b>		
<b>M.X.Fayziyeva</b>	<i>Kambag'allikni qisqartirishga raqamli texnologiyalarning ta'siri .....</i>	195-210
 <b>INSON RESURSLARINI BOSHQARISH</b>		
<b>M.Sh.Xaydarova</b>	<i>Использование автоматизации и искусственного интеллекта в управлении человеческими ресурсами: тренды и ожидания</i>	211-221
<b>M.M.Xolmatov</b>	<i>Inson resurslarini samarali boshqaruvida inson kapitalini rivojlantirish .....</i>	222-232
<b>G.Q.Mo'ydinova</b>	<i>O'zbekistonda to'qimachilik korxonalarining rivojlanish holati va ularda xodimlarni boshqarish tendensiyalari tahlili .....</i>	233-238
<b>O.I.Rasuljonov</b>	<i>KPI – xodimlar faoliyati samaradorligini baholashning zamонавији тизими .....</i>	239-246
 <b>TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH</b>		
<b>S.U.Ismailova</b> <b>D.U.Adilova</b>	<i>Теоретические основы развития стратегии цифрового маркетинга на рынке сферы услуг и туризма .....</i>	247-254
<b>Z.M.Jabborova</b>	<i>Jizzax viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikda mehnat munosabatlarining rivojlanishi holati .....</i>	255-263
<b>S.S.Mamatqulov</b> <b>D.I.Iskandarova</b>	<i>O'zbekistonda tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish asosida aholi farovonligini yuksaltirish yo'llari .....</i>	264-274
<b>M.Sh.To'xtayeva</b>	<i>Platformalarda informatsion xaritalar – aholi tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida .....</i>	275-282
<b>T.A.Urkinbayev</b>	<i>Влияние реформ в сфере туризма на рост экономики Узбекистана и развитие предпринимательства .....</i>	283-292

**D.A.Vahobov**

- Кичик бизнес субъектлари фаолиятини инфратузилмавий қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш ..... 293-305  
*Factors and assessment methods in the development of HR branding: foreign experience .....* 306-314

**Z.Dj.Adilova**

**O.U.Oxunova**

### **GENDER TENGLIK**

- O'zbekiston mehnat bozorida gender tengligi: muammolar va islohotlar .....* 315-324



**МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ  
ВА ИНСОН КАПИТАЛИ**  
**ISSN: 3030-3117**  
<https://laboreconomics.uz/>



**О'zbekistonda tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish  
asosida aholi farovonligini yuksaltirish yo'llari**

**Mamatqulov Sarvarbek Sanjar o'g'li**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Iqtisodiyot" fakulteti talabasi

**Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi**

TDIU tayanch doktoranti,

"Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi assistenti

**DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a77](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a77)**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonning tadbirkorlik sektori bo'yicha innovatsion yo'nalishlarni o'rganish, tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsiya jarayonlarining roli, ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri hamda aholi daromadlarini oshirishdagi o'rni to'g'risida tahlillar keltirilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekistonning innovatsion faoliyatida olib borilayotgan yangiliklar va bu yo'nalishdagi muvaffaqiyatlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Tadbirkorlik, innovatsiya, o'z-o'zini band qilish, daromad.

**ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ  
ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В  
УЗБЕКИСТАНЕ**

**Маматкулов Сарварбек Санжар угли**

Ташкентский государственный экономический университет

Студент факультета «Экономика»

**Искандарова Диляфруз Икрам кизи**

Докторантка ТГЭУ,

Ассистент кафедры

«Управление человеческими ресурсами»

**Абстрактный.** В данной статье представлен анализ исследования инновационных тенденций в предпринимательском секторе Узбекистана, роли инновационных процессов в развитии предпринимательства, их влияния на экономику страны, а также их роли в увеличении доходов населения. Также в статье содержится информация о нововведениях и успехах в этом направлении в инновационной деятельности Узбекистана.

**Ключевые слова:** Предпринимательство, инновации, самозанятость, доход.

## WAYS TO INCREASE THE WELFARE OF THE POPULATION ON THE BASIS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

**Mamatkulov Sarvarbek Sanjar ugli**

Tashkent State University of Economics

Student of Faculty of "Economics"

**Iskandarova Dilafruz Ikram kizi**

PhD student of TSUE

Assistant teacher of the department "Human resources management"

**Abstract.** This article presents analyzes of the study of innovative trends in the entrepreneurial sector of Uzbekistan, the role of innovation processes in the development of entrepreneurship, their impact on the country's economy, and their role in increasing the income of the population. Also, the article contains information about the innovations and successes in this direction in Uzbekistan's innovative activities.

**Key words:** Entrepreneurship, innovation, self-employment, income.

### **Kirish**

Tadbirkorlik – o‘z mulki bilan tavakkalchilik asosida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat hisoblanib, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi. Respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – respublikada tadbirkorlikni va mahallalarni iqtisodiy rivojlantirish borasida yagona davlat siyosatini yuritish, mahallabay ishlashning vertikal tizimi asosida aholining daromadli mehnat bilan bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va o‘qitish hamda o‘zini o‘zi band qilish faoliyatiga yo‘naltirish, iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda tadbirkorlikni muhim drayverga aylantirishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kabilardan iborat.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan bog’liq amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 10-noyabr kuni “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo’llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmon imzolandi.

Unda o‘rta biznesni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan resurslarning yetishmasligi qayd etilgan. Hujjat bilan, muqobil moliyaviy vositalarni, xususan, tadbirkorlik loyihalariiga ulush kiritish va xizmatlar ipotekasini joriy etish chora-tadbirlari belgilandi. Tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” sifatida qayta tashkil etildi.

Shuningdek, o‘z o‘zini band qiluvchilarga moliyaviy ko‘maklashilib, xizmatlar ko‘rsatish, mahsulot ishlab chiqarish hamda yetishtirish sohalarida “yashil” va energiya tejovchi texnologiyalarni, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish qo‘llab-quvvatlanmoqda;

Kichik va o‘rtta tadbirkorlik loyihalariga esa kredit (lizing) ajratish uchun banklar, mikromoliya va lizing tashkilotlariga milliy va xorijiy valyutada moliyaviy resurslarni joylashtirish imkoniyati berilmoqda.

Shuni ta’kidlash joiz-ki, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning mamlakat miqyosida ahamiyati quyidagilardan iborat:

- Bandlikni ta’minalash - tadbirkorlik ish bilan ta’minalaydi. Bu tajriba orttirish va malakasiz ishchilarni o‘qitish uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich darajadagi ish bilan ta’minalashni o‘z ichiga oladi.

- Innovatsiyalar - bu innovatsiyalar markazi bo‘lib, u yangi mahsulot ishlab chiqarishni, bozorni, tovarlarning sifatini ta’minalaydi va odamlarning turmush darajasini oshiradi.

- Jamiyat rivojiga ta’siri - agar bandlik bazasi katta va diversifikatsiyalangan bo‘lsa, bu jamiyatda o‘zgarishlarga olib keladi va ta’limga ko‘proq xarajatlar, yaxshi sanitariya sharoitlari, kambag’allikni qisqartirish, uy-joy mulkdorlarining ko‘payishi kabilarga yordam beradi. Shu sababli, tadbirkorlik jamiyat hayotining yanada barqaror va yuqori sifatiga yordam beradi.

- Turmush darajasini oshirish - tadbirkorlik daromadni oshirish orqali insonning turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi. Turmush dariasi - bu ma'lum bir davr uchun uy xo‘jaligi tomonidan turli xil tovarlar va xizmatlar iste'molining oshishi.

- Tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlaydi - yangi mahsulot va xizmatlar bozorga chiqarilishidan oldin o‘rganilishi va sinovdan o‘tkazilishi kerak. Shu sababli, tadbirkor ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar bilan tadqiqot va ishlanmalar uchun mablag‘ ajratadi. Bu iqtisodiyotda tadqiqot, umumiy qurilish va rivojlanishga yordam beradi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asosi sifatida bir qator qonunchilik hujjatlari mavjud bo‘lib, ular:

2019-yildagi PQ-4389-son "Soliq ma‘muriyatçiliginin takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" – bu qaror soliq yig‘imlarini soddalashtirish, soliq to‘lovchilarning huquqlarini himoya qilish va soliq ma‘muriyatçiliginin zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda takomillashtirishga qaratilgan.

2018-yil 1-avgustdaggi PF-5495-son "O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investorlarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida" – bu Farmon xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash va O‘zbekistonda biznes yuritish shartlarini optimallashtirishni ko‘zda tutadi.

2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi – bu hujjat O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va aholining raqamli savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan.

2022-yil 9-iyundagi PF-150-son "Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish va qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" – bu farmon tadbirkorlarga ko'proq erkinliklar berish, biznes yuritishni soddalashtirish va davlat organlarining aralashuvini kamaytirishga qaratilgan.

Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish, uning turlari va faoliyat yo'nalishlari, uning mamlakat iqtisodiy o'sishi hamda aholi turmush farovonligiga ta'siri masalalalari ko'plab mahalliy va xorijlik olimlar tomonidan o'r ganilgan.

Akademik Q.X.Abdurahmonov fikricha: "Mamlakatda tadbirkorlik faoliyati yakka tartibda, jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikda hamda mikrofirmalar va kichik korxonalar tashkil etilgan holda amalga oshiriladi.<sup>143</sup>

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining sub'ektlari quyidagilar:

- Yakka tartibdagagi tadbirkorlar;
- Jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi tadbirkorligi;
- Oilaviy tadbirkorlik;
- Oddiy shirkat;
- Dehqon xo'jaligi;
- Mikrofirma;
- Kichik korxona.

H.R.Hamroyev tadbirkorlik faoliyati moliyalash to'g'risida shunday fikrlar keltiradilar<sup>144</sup>: "Tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, ishlatish masalalari tadbirkorlik moliyaviy munosabatlarini tashkil etadi. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalash - bu tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy resurslar, ya'ni pul mablag'lari bilan ta'minlash demakdir. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalash ikki manbadan - ichki va tashqi manbadan amalga oshiriladi. Moliyalashning ichki manbai tadbirkorlik subyektining o'z mablag'lari bo'lib, unga ustav sarmoyasi tarkibidagi pul mablag'lar, faoliyatdan olinadigan foyda, amortizatsiya jamg'armasi, tekinga berilgan mablag'lar kiradi. Moliyalash tashqi manbalariga kreditorlar, investorlar va boshqa qarz beruvchilar kiradi."

E.Aliyev o'zining tadqiqotida O'zbekistondagi tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi muammolarni va imkoniyatlarini o'r ganib chiqgan.<sup>145</sup>

---

<sup>143</sup> Q.X.Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. O'zRFA "Fan" nashriyoti davlat korxonasi, Toshkent, 2019

<sup>144</sup> H.R.Hamroyev. "Tadbirkorlik asoslari", "Yangi nashr" Nashriyoti, Toshkent. 2010, U.P.Umurzaqov,A.J.Toshboyev "Kichik biznes va tadbirkorlik" "Sano-Standart" nashriyoti Toshkent- 2014

<sup>145</sup> Aliyev, E. "Entrepreneurship and Innovation in Uzbekistan: Challenges and Opportunities" - (2017)

Xorijlik olimlardan V.Ivanov, D.Petrovlar<sup>146</sup> o'zlarining olib brogan tadqiqot ishlarida hukumat siyosatlarining tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi rivojlanishga ta'siri haqida ma'lumotlar beradi.

Bundan tashqari Eric Ries<sup>147</sup> o'z kitobida tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi "lean startup" metodologiyasini o'rganishga yordam beradi va yangi bizneslarni muvaffaqiyatli yaratishning asosiy printsiplarini taqdim etadi.

Maksim Yeniseyev<sup>148</sup> tomonidan esa ilmiy ishlarida O'zbekiston tadbirkorlikni yo'lga qo'yish va O'zbekistondagi korxonalarga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni rag'batlantirishga qaratilgan qator tashabbuslar yoritilgan.

Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida yuqorida keltirilgan turli xil fikrlar va yondashuvlarni umumlashtirgan holda, qisqa qilib quyidagicha ta'rif berish mumkin: tadbirkorlik faoliyati – shakli va sohasidan qat'i nazar, foyda olish va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqot ishida statistik guruhlash, induksiya, deduksiya, qiyosiy taqqoslash kabi usullardan foydalanilgan. Statisistik ma'lumotlarni olishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga asoslangan.

### **Tahlil va natijalar**

O'zbekiston iqtisodiyotining dinamik rivojlanishi va global bozorlarga integratsiyasi, mamlakatda tadbirkorlikning yangi va innovatsion yo'naliшlarini shakllantirishga zamin yaratmoqda. Hukumat tomonidan tadbirkorlik muhitini yaxshilash va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatlar, O'zbekistonni Markaziy Osipyodagi eng jozibador investitsiya manziliga aylantirishga xizmat qilmoqda. Quyida O'zbekistondagi tadbirkorlikning ba'zi innovatsion yo'naliшlariga nazar solamiz.

#### **Texnologik Startaplar:**

Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan startaplar, O'zbekiston iqtisodiyotining yangi yulduzlariga aylanmoqda. Sun'iy intellekt, blokcheyn, dasturiy ta'minot ishlab chiqarish kabi sohalar mamlakatda yangi biznes modellarini yaratmoqda. Masalan, "MyTaxi" kabi mobil ilovalar transport sektorini qayta shakllantirib, iste'molchilarga qulayliklar yaratmoqda. Bunday texnologik startaplar, nafaqat mahalliy, balki xalqaro bozorlarda ham muvaffaqiyat qozonishga intilmoqda. Raqamli sog'liqni saqlash, ta'lim texnologiyalari (EdTech) va moliya texnologiyalari (FinTech) kabi sohalarda yangi korxonalar faol rivojlanmoqda. Masalan, "Humo" to'lov tizimi elektron to'lovlarini amalga oshirishda yangi imkoniyatlar yaratib, moliyaviy

---

<sup>146</sup> Ivanov, V., & Petrov, D. "Entrepreneurship and Innovation in Uzbekistan: The Role of Government Policies", 2020

<sup>147</sup> Eric Ries. "The Lean Startup: How Today's Entrepreneurs Use Continuous Innovation to Create Radically Successful Businesses", 2011

<sup>148</sup> Maksim Yeniseyev. "Uzbekistani initiatives aim to encourage innovation, foreign investment", 2018

xizmatlarni demokratlashtirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda startaplar va innovatsion klasterlar ekotizimini rivojlanadirishga qaratilgan sa'y-harakatlar kuchaytirilmoqda. Mamlakatda startaplar uchun qulay muhit yaratish maqsadida soliq imtiyozlari, grantlar va moliyalashtirish dasturlari taqdim etilmoqda. Shuningdek, Toshkentda va boshqa yirik shaharlarda texnoparklar va inkubatorlar faoliyat yuritib, yangi g'oyalar va loyihamar uchun kerakli resurslar hamda mentorlik xizmatlarini taklif etmoqda. Bu tashabbuslar innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

**Qishloq xo'jaligida innovatsiya:**

O'zbekiston iqtisodiyotining an'anaviy ustuni hisoblangan qishloq xo'jaligida ham zamonaviy texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy agrotexnologiyalar, genetik muhandislik, suvni tejaydigan sug'orish tizimlari kabi yangiliklar qishloq xo'jaligining samaradorligini oshirmoqda. Bu innovatsiyalar mahsulot sifatini yaxshilash bilan birga, eksport salohiyatini ham kuchaytirmoqda. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasi an'anaviy ishlab chiqarish metodlaridan zamonaviy va samarali texnologiyalarga o'tish jarayonida. Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlarini qo'llash, suvni tejaydigan va vertikal fermerlik usullari bu sohani tubdan o'zgartirmoqda. Bu o'zgarishlar hosildorlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ekologik muammolarni hal etishga yordam bermoqda.

**Qayta Tiklanuvchi Energiya:**

O'zbekiston o'zining tabiiy resurslari, jumladan quyosh va shamol energiyasini samarali ishlatish yo'lida qadam tashlamoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Mamlakatning qayta tiklanuvchi energiya salohiyati katta bo'lib, bu yo'nalishdagi loyihamar energetika sohasida yangi ish o'rirlari yaratish, importga bog'liqlikni kamaytirish va atrof-muhit muhofazasiga hissa qo'shishga qaratilgan. Misol uchun, Navoiy viloyatida ishga tushirilgan quyosh elektr stansiyalari bu sohadagi yutuqlarni namoyish etmoqda. Fotoelektr stansiyasining ishga tushirilishi natijasida yiliga 260 million kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi hamda 79 million metr kub tabiiy gaz iqtisod qilinishiga erishiladi. Bu sohada tashkil etilayotgan startaplar va loyihamar, mamlakatni energiya jihatidan o'zini oziqlantiruvchi va eksport qiluvchi davlatga aylantirish imkonini beradi.

**Raqamlı Xizmatlar:**

Internetning tezkor rivojlanishi bilan birga, O'zbekistonda elektron tijorat, raqamlı moliya, onlayn ta'lim kabi sohalar tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Elektron tijorat platformalari, raqamlı ta'lim xizmatlari va sog'liqni saqlash ilovalari kabi sohalar foydalanuvchilarga qulay va samarali yechimlar taklif etmoqda. Masalan, "Uzum", "Olx.uz" kabi elektron savdo maydonchalari, "Payme" va "Click" kabi to'lov tizimlari iste'molchilarga katta qulayliklar

yaratmoqda. Bu kabi platformalar, mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini tezlashtirishda muhim rol o'ynamoqda.

Turizm Sohasida Innovatsiyalar:

O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi, turizm sohasida ham innovatsiyalarni joriy etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Virtual realitet, onlayn bronlash tizimlari kabi texnologiyalar yordamida sayyohlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu yondashuvlar, mamlakatning turistik jozibadorligini yanada oshirib, xalqaro sayyohlar oqimini ko'paytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning innovatsion yo'nalishdagi bu qadamlari, mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanishni ta'minlash, aholini o'z-o'zini band qilish orqali daromadlarini oshirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Innovatsiya va texnologiya, O'zbekistonni yangi iqtisodiy yutuqlarga yetaklayotgan asosiy kuchlardan biriga aylanmoqda. Bu sa'y-harakatlari mamlakatni zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar bilan boyitish va xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan. Bu islohotlar kelajakda O'zbekistonga iqtisodiy o'sishning yangi bosqichlarini boshdan kechirish imkonini beradi.

Quyida kichik-biznes va xususiy tadbirkorlikda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasini ko'rishimiz mumkin (1-jadval):

**1-jadval**

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi<sup>149</sup>**

	Ko'rsatkichlar	2003	2023
1	Sanoat (mlrd.so'm)	659.6	119088.5
2	Qurilish (mlrd.so'm)	331.9	79990.5
3	Bandlik (ming kishi)	5436.7	10278.9
4	Eksport (mln.AQSH.dol)	272.1	5332.4
5	Import (mln.AQSH.dol)	998.0	13440.6
6	Savdo (mlrd.so'm)	1818.5	167458.3
7	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd.so'm)	3196.9	283340.4
8	Xizmatlar (mlrd.so'm)	-	155220.8
9	Yuk tashish (mln.tonna)	87.4	479.8
10	Yuk aylanmasi (mln.tonna-km)	4419.7	11885.0
11	Yo'lovchi tashish (mln.yo'lovchi)	1507.0	4156.1
12	Yo'lovchi aylanmasi (mln.pass.km)	18410.7	92057.2

<sup>149</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) sayti ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, so'nggi 20 yil davomida sanoat sohasida daromadlar 118428.9 mlrd so'm, qurilish sohasida 79658.6 mlrd so'm, savdo 165639.8 mlrd so'm, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 280143.5 mlrd so'mga oshgan.

**2-jadval**

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, umumiylajmga nisbatan % da<sup>150</sup>**

Ko'rsatkichlar	2003	2023
YaIM	35.0	48.6
Sanoat	10.8	26.0
Qurilish	39.9	77.1
Bandlik	56.7	74.1
Eksport	7.3	27.6
Import	37.7	47.6

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2003-2023-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi YaIMda 35 foizdan 48.6 foizga, sanoatda 10.8 foizdan 26 foizga, qurilish sohasida 39.9 foizdan 77.1 foizga oshga bo'lib, bugungi kunda jami bandlarning 74.1 foizi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqda.

**Muhokama**

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish katta muhimlikka ega bo'lgan mavzu hisoblanadi. Davlatning "O'zbekiston 2030" strategiyasi bilan, mamlakat innovatsion rivojlanishni yengillashtirish, yangi texnologiyalarni qabul qilish va innovatsion sohasida bo'lgan ko'nikmalarni o'rganish va rivojlantirish uchun keng qamrovli qo'llanmalar amalga oshirilmoqda.

Bunda asosiy yo'nalishlar va muommolar quyidagilar:

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat dasturlari va huquqiy muammolar muhim rolni o'ynaydi. Innovatsion faoliyatlar uchun o'zaro hamkorlikni rag'batlantirish, investitsiyalarni himoya qilish, intellektual mulkni himoya qilish va innovatsion loyihalarni himoya qilish uchun qonunlar va dasturlar tuzish zarur.

Kadrlar bilimini rivojlantirish: so'nggi texnologiyalardan foydalanish uchun mutaxassislar va innovatorlarni tayyorlashda ajralmas muammolar mavjud. Talabalar va tadbirkorlar uchun yangi bilimlarni o'rgatishda qiyinliklar bor. Yangi texnologiyalarni o'rganish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish va tadbirkorlik madaniyatini yaratishga yo'l qo'yish kerak.

<sup>150</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) sayti ma'lumotlari

Infrastrukturani yanada rivojlantirish: Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilma, transport va kommunikatsiya tarmoqlarini yanada rivojlantirish zarur. Internet ulushi, energiya tarmoqlari va logistikani yanada rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatlar uchun kerakli sharoitlar yaratilishi kerak. Texnologik laboratoriyalar, inkubatorlar va biznes-ekosistemalar kuchayish uchun yetarli emas.

Intellektual mulkning himoya qilinishi va litsenziyalanishi sohasidagi qonun-huquqiy muammolar hal qilinmagan. Bu esa innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashda va ularga investitsiyalar jalb qilishda muammolarga olib kelmoqda.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar yetarli emas. Biznes-to'lovchilarning, bank va investitsiya kompaniyalarining innovatsion loyihalarga moliyaviy qo'llab-quvvati yetarli emas.

Innovatsion tadbirkorlikning o'zlashtirilishi va biznes madaniyati tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarni oshirishda muammolar bor. Innovatsiyalar uchun riskni qabul qilish va biznes rejalarini o'zgartirishda qiyinliklar ko'rsatilgan.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish va ularga moliyaviy investitsiyalarni jalb qilishda tez va samarali harakat qilish zarur. Buyurokratik jarayonlar va tadbirkorlar uchun hujjat to'plash va rivojlantirish jarayonlarini tugatishda muammolar mavjud.

Tadbirkorlikda riskni qo'llab-quvvatlash: Tadbirkorlikni rivojlantirishda biznesning risklarni qo'llab-quvvatlash va innovatsion loyihalarni investitsiyalash uchun dastlabki moliyaviy va huquqiy muammo va ruxsatnomalarni hal qilish kerak.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda ko'rinasiga va ko'rinaligiga sun'iy to'siqlar mavjudligi erkin faoliyat yuritishni cheklaydigan katta to'siq hisoblanadi.

Davlatni xususiylashtirishga va savdoni erkinlashtirishga qilayotgan islohotlari va qadamlari bunday to'siqlarni bir muncha bartaraf etadi bunga yaqinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonun O'RQ-907-son (14.02.2024) yaqqol namoyon bo'ldi.

Unga ko'ra, xususiylashtiriladigan davlat mulki ob'ektlari:

Davlat mulki, to'liq yoki qisman xususiylashtirilishi mumkin (bundan davlat mulkini boshqarish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan xususiylashtirilmaydigan davlat mulki mustasno).

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi davlat mulkini xususiylashtirish sohasidagi vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Xususiylashtiriladigan davlat mulkining boshlang'ich narxi vakolatli davlat organi yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan belgilanadi.

Davlat mulkini xususiylashtirish quyidagi usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi:

-auksion;

-tanlov savdolari;  
-muzokaralarga ommaviy ravishda taklif qilish;  
-raqobatga asoslangan muloqot;  
-birja savdolari;  
-davlat unitar korxonasini yoki davlat muassasasini mulkiy majmua tarzida xo'jalik jamiyatining ustav fondiga (ustav kapitaliga) davlat ulushi sifatida kiritish;  
-davlat ulushlarini va davlat ko'chmas mulk ob'ektlarini xo'jalik jamiyatining ustav fondiga (ustav kapitaliga) davlat ulushi sifatida kiritish;  
-davlat unitar korxonasini yoki davlat muassasasini keyinchalik xususiyashtirish sharti bilan ijara berish.

Bu kabi qarorlar mamlakatimizdagи tadbirkorlik faoliyatining innovatsion rivojlanishida katta ko'priq bo'lib xizmat qiladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, O'zbekistonda tadbirkorlik sohasida innovatsiyalar katta ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat rivojlanishida muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston hukumati tomonidan innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga va investitsiyalarni jalg etishga qaratilgan boshlang'ich tashriflar, innovatsion yo'nalishlarga e'tibor qaratilmoqda. Soha ixtirochilar uchun qo'llanmalar va dasturlar tashkil etilmoqda, shuningdek, innovatsion loyihalar uchun moliyaviy qo'llanmalar taqdim etilmoqda.

Sanoat sohasida avtomatlashtirish, texnologik yangilanishlar va energetika sohasidagi innovatsiyalar keng ko'lamlı investitsiyalarni jalg etmoqda. Shu yo'sinda unitar korxonalarning o'rni kamayib xususiy mulkchilikga katta ahamiyat berilmoqda. Barcha viloyatlar o'rtasida innovatsion markazlar va texnologik inkubatorlar ochildi, bu esa mahalliy innovatorlarga loyihalarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratdi. Buning natijasida, yangi iqtisodiyot modellarini amalga oshirish va mamlakatning innovatsion potentsialini oshirishga yo'l ochilmoqda.

Shuningdek, biz yuqorida sanab o'tgan tadbirkorlikning innovatsion yo'llari (texnologik startaplar, qishloq xo'jaligida innovation texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, raqamli xizmatlar, turizm sohasida innovatsiyalar)ni va shu kabi aholi o'zini o'zi band qilishi, daromad olishiga sabab bo'ladigan loyihalarni investitsiyalash orqali mamlakatimizda aholi tumush farovonligini yaxshilashga erishishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Q.X.Abduraxmanov. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. O'zRFA "Fan" nashriyoti davlat korxonasi, Toshkent, 2019
2. U.P.Umurzaqov, A.J.Toshboyev "Kichik biznes va tadbirkorlik". Sano-Standart nashriyoti, Toshkent, 2014
3. H.R.Hamroyev "Tadbirkorlik asoslari", "Yangi nashr" nashriyoti, Toshkent, 2010

4. Aliyev, E. "Entrepreneurship and Innovation in Uzbekistan: Challenges and Opportunities", (2017)
5. Ivanov, V., & Petrov, D. "Entrepreneurship and Innovation in Uzbekistan: The Role of Government Policies", (2020).
6. Eric Ries. "The Lean Startup: How Today's Entrepreneurs Use Continuous Innovation to Create Radically Successful Businesses", 2011
7. Maksim Yeniseyev. "Uzbekistani initiatives aim to encourage innovation, foreign investment" 2018
8. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik hujjatlari rasmiy sayti
9. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti

# Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13



Tashkent, Uzbekistan



ilmiy.maktab@gmail.com



[www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)